

OILAVIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH VA IJTIMOIY –PSIXOLOGIK MUOMMOLAR YECHIMI

Izzatullayeva Zohida Sunnatdullayevna
Alfraganus university Pedagogika va Psixologiya
Fakulteti 1-bosqich magistranti.
E-mail: izzatullayevazokhidaxon@mail.com
ORCID 0009-0000-9450-6202

Anatatsiya

Ushbu maqolada oila, nikoh munosabatlari, yosh oila munosabatlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va masalalari yoritilgan. Asosiy e'tibor yosh oiladagi muammolarni yechimini topish bilan birga, uni keltirib chiqayotgan muommo sabablarining tub mohiyatini ochib berish uchun, psixologik olimlarning bu borada olib borgan ko'plab ilmiy tadqiqotlariga yuzlanamiz. Bugun yurtimizda yosh-oilalardagi muommolarni bartaraf etishda, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash qonunchilikda yosh oilalarga ko'mak berish huquqiy bazasini kengaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Oila tushunchasi biz uchun juda muhim va ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga boy bo'lgan bir ma'noni anglatadi. Yer yuzuning barcha davlatlarida oila muqaddas va unga juda katta e'tibor qaratilgan. Qadimgi manbalarga tayansak ham bugunga qadar yetib kelgan tarixiy manbalarni sinchiklab qaraganimizda, oila qurush va uning shartlari va uni buzush juda katta gunoh sanalganligini ko'rishimiz mumkun. Bugun Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini tashkil etuvchi bir tizim sifatida olganimizda uning asosini oilada yashovchi insonlar tashkil qiladi. Bizgacha bo'lgan davr ichida oila-atamasining ma'nosi o'z o'rnini yuqotmadi va aksincha u o'zini yanada qanchalik jamiyat uchun ahamiyatli ekanini isbotlab berdi.

Kalit so'zlar: Oila atamasi, nikoh munosabatlari, zamonaviy oila, oilaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, tarixiy tadqiqotlar, psixologik muommolar yechimi.

Kirish

Tarixiy manbalarning dalillashicha, qadim-qadimdan oilaga muqaddas maskan, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida qaralgan. Shu bois, oila va nikoh masalalariga, oilaviy turmush tartib-qoidalariga, er-xotinning vazifa va burchlariga alohida e'tibor berilgan. Oila qurmoqchi bo'lgan yoshlarni avvalombor oilaga tayyorlab unga ham diniy hamda ilmiy bilimlar berish juda muhim hisoblangan. Azal-azaldan sharqona tarbiya uyg'unligida kamol toptirish uchun uydagi ota-onaning ma'naviy bilim salohiyati juda katta ahamiyatga ega hisoblangan. Shu sababli ham qizlarimizga yoshlikdanoq oilada

qiz farzandning fazefalari o'qtirilib uni oilaga tayyorlab borilgan. Yosh yigitlarimizga esa oiladagi barcha qiyinchiliklar va muommolarni bartaraf etish uchun faqat yigit kishi mas'ul bo'lishi va oila boshi sifatida ruzg'or tebratishi kerakli uqtirib kelingan. Bugungi kunga kelib shuni ishonch bilan ayta olamizki bizning ota-bobolarimiz kuchli psixologik mahoratga ega bo'lgan buyuk shaxslar bo'lgan. Ularning bugungi kunga qadar bizgacha qoldirgan risolalarida va dabiyot manbalarida ham oila tushunchasiga juda katta ta'rif berish bilan birga, uning asosiy negizidagi muommolarni, psixologik hal etishning yullari ko'rsatib berilgan.

Munozara

Bugun jamiyatimizning ko'p qismini yoshlarimiz tashkil etadi. Jamiyatning birlashuvi uning rivojlanishida oilaning o'rni ahamiyatli. Butun dunyoda bo'lgani kabi bizning yoshlarimiz ham bugun o'z fikriga, o'z dunyo qarashiga ega bo'lgan ilg'or yoshlardir. O'rta Osiyo halqlaridagi tarbiya va oila tushunchasining muvaqqatligi ming afsuski yevropacha tushunchaga qaraganda juda katta farq qiladi. Yevropacha qarashlar bizning yurtimizda ham o'z soyasini ko'rsatib turganligi rost. Xalqimiz orasida necha yillardan beri qadrlanib kelgan milliy tuy-bazmlarimiz biroz yevropalashib o'zgarishlar kirganiga ham inkor eta olmaymiz. Ho'sh bunga nima sabab bo'lmoqda? Bugun yoshlarimizning dunyo qarashining o'zgarishiga ta'sir qilayotgan omillar aslida nima? Erta qurilgan oilalarning 1 yilga bormasidanoq buzilib ketilishiga nima sabab bo'lmoqda? Yoshlarimizning endi oila tushunchasiga jiddiy ma'sulyat bilan qaramayotganliklarining asil sababi qayerda? Biz shu kabi ko'plab savollarni o'rta tashlaganimizda ko'plab ijtimoiy-psixologik muommolar yuzaga kelayotgani va uning yechimi topish uchun o'zimizga bog'liqligini unutib qo'ygandekmiz.

Metod

Yosh oilalardagi muommolar asta-sekinlik bilan paydo bo'la boshlaydi. Dastlab barchasi bir hil tekis davom etayotgan bir harakatga o'xshab ko'rinsada undagi xususyatlar kechroq o'zini namoyish etadi. Bu holat bizning milliylikimiz bilan bog'liq bo'lgan or-nomus masalasi bilan ham bog'liq. Mavjud bo'lgan dastlabki muommoni boshida aniqlanganda uni bartaraf etish oson lekin, biroz vaqt o'tgan va muommoning hajmnining kattalashishi ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Maqolada aynan oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun unga psixologik yondashish kerakligi va ijtimoiy tizimdagi o'rni haqida fikr yuritimiz. Maqolada ko'plab psixolog olimlarimizning husasan oila masalalari bo'yicha bir necha yillab ish olib borgan tadqiqot natejalariga yuzlanamiz. Bugungi kunning yevropalashgan oilalarining milliy oila tushunchasining biroz qadrsizlanishiga olib kelgan muommolar negizining tub mohiyatiga etiborimizni qaratamiz.

Jamiyatda oilaning roli shunchalik ahamiyatliki, u adolatli tarzda har qanday jamiyatning negizi sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki oila ijtimoiy hayotning alohida sohasini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda kelajakda jamiyatda yashashi va davlatning fuqarosiga aylanishi kerak bo'lgan shaxsning dunyoga kelishi, oyoqqa turish va shakllanishi jarayonlari kechadi. Shu boisdan oilani mulohaza qilishga istalgan jamiyatda, har qanday davlat alohida e'tibor beriladi.

Oila deganda biz aslida qanday guruhni tushunamiz? uning lug'aviy ma'nosi qanday ?

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

O'rta Osiyo davlatlarida o'tgan davrlarga e'tibor qaratsak oila atamasi guzallashib sayqallashib borganiga guvoh bo'lamiz. Undagi mehr-oqibat va muhabbat tuyg'ulari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bizning ajdodlarimiz ham oila tushunchasiga hurmat bilan qarashgan. Unga diniy tomondan ko'proq e'tibor qaratish bilan birga undagi ayol kishining haq-huquqlarini ham diniy tomondan belgilab qo'ygan. Bu qoidalarga barcha birdek amal qilib kelgan. Dastlab voyaga yetib kelayotgan yoshlarni guzal ahloqiy tarbiya berish bilan birga , unga islomiy ta'limdan ham xabardor etishgan. Oila haqiqatdan bir buyuk maktab, unda tug'ulib o'sgan bola ertaga mamlakat taqdiriga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham oiladagi muommolarni keltirib chiqozayotgan, bugungi psixologik muommolar sababi ham yoshlarning oila haqidagi yetarlicha ilmiy-diniy bilimlarining yetarli emasligidadadir. Bu muommolar oqibati yanada kattaroq ko'ngilsizlarga sabab bo'lib qolmoqda.¹

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or

¹¹ .G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi): PedFoziev Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси):

tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, otanonaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Bugun xalqimiz orasida turli hil millatdan bo'lgan insonlar bor. Albatta ularning dunyoqarashi o'z millatiga va yoshlikdanoq singib ketgan qadryatlariga monandir. Zamonaviy oila qurish havasi ba'zi bir yoshlarimizning xato qilishiga va tez qaror qabul qilishiga sabab bo'lib qolmoqda. Aslida zamonaviy oila tushunchasining ma'nosi qanday va uning bugungi kunda qanday ijobiy va salbiy tomonlari haqida ko'pchilik yoshlarimiz yetarlicha bilim, ko'nikmalarga ega emaslar. Yoshlarimizning yevropacha qarashlari ba'zan ularda milliy qadryatlarimizning qadrini yuqotib borayotganga o'xshaydi. Yosh oilalardagi zamonaviy oilani yaratish ikki yoshning faqat o'zlariga tegishli bo'lgan qarorlari, muhumligi va bu qarorlarni barcha birdek qabul qilishni hohishi juda kuchliligidan ba'zan ko'plab xatolarni yuuga keltirib chiqozmoqda. Yosh oilalardagi yoshlarning alohida yashashni tarjiya etishlari va bizning milliy urf-odatlarimizning eng guzal odatlaridan, kelinlik vazefalarining asta-sekinlik bilan qizlarimiz tomonidan rad etilishi va uning o'rniga asal oyi tushunchalari ham shular jumlasidandir. Aslida biz aytayotgan zamonaviy oila tushunchasi faqat yosh kelin-kuyovlarning yolg'iz yashab o'z hayotlarini o'zlari hal etish degani emas.

Zamonaviy oila - oila quruvchi ikki shaxsning bir birini yetarlicha tushunib yetishi, jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan bir-birini hurmat qila olgan, odob-ahloq qoidalariga doimo rioya qilgan, diniy va dunyoviy bilimlarni o'zida mujassamlashtira olgan ikki shaxsning uyg'unligi, yoshi ulug'larimiz sobit turgan va asarab avaylagan sharqona qadryatlarimizning guzalligini anglab yetgan, o'zbekona barchaga birdek izzat-hurmatni saqlay olgan, hamda shu guzal sifatlar bilan kelajak avlod yetishtirishga tayyor bo'lgan, ikki shaxsning roziligi asosida qurilgan oilani biz ishonch bilan zamonaviy oila deya ayta olishimiz mumkun.

Zamonaviy sharoitda oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari faylasuf, psixolog va pedagog olimlar tomonidan, oila muammosining turli jihatlarini tadqiq etish jarayonida ochib berilgan. Psixolog olimlardan V.M.Karimova "O'zbek yoshlarida oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi" deb nomlangan ilmiy ishida o'zbek oilasidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruhlarda namoyon bo'lishining empirik jihatlariga asoslanib, tadqiq etgan.

Oila hayoti ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo'jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lami va tavsifi bilan bog'liq. V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Isaevlarning fikricha, oila jamiyat va shaxsga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiylar oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda uning ta'lim va tarbiya olishi muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib berish orqali ijtimoiy tarbiyaning tamal toshini qo'yganlar. Allomalarimiz o'z davrining ham diniy ham dunyoviy bilimlar sohibi sifatida dunyoga tanildi. Farzand tarbiyasi nechog'lik muhim bir vazefa ekanligini bir bolaning ilimli-savodli bo'lishi jamiyat kelajagida katta o'zgarishlarga sababchi bo'lishini allomalarimiz yaxshi bilishgan. Ana shunday ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan ota-ona tarbiyasini olgan, bobolarimiz bugun bizning kelajagimizda bir necha yillar oldinroq tamal toshlarini qo'yishga erishishgan. Ular qoldirgan durdona asarlar ularning kashf etgan tadqiqot natejalari bugun dunyo olimlarini hayratlanishiga sabab bo'lmoqda. Bir vaqtning o'zida ham diniy bilimlarni o'zlashtira olgan va bu bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan buyuk kashfiyotlar asoschilariga aylanishgan. Yosh oilalardagi muommolsrning ijtimoiy-psixologik ahamiyati ham ana shunday bilimlarning yetishmayotganligidadir.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o'chog'i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o'tgan yaxshi udum, odatlar mavjud.

- ➔ birinchidan, oila o'ziga xos va takrorlanmas ta'sirga ega;
- ➔ ikkinchidan, oila bola uchun o'ziga xos «ko'zgu» bo'lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;
- ➔ uchinchidan, oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi;
- ➔ to'rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi;
- ➔ beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- ➔ oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin.

H.Uzaqov, Shoumarov G'.B, E.G'.G'oziyev, A.Tojiyevlar yoshlarni oilaviy hayotga jismoniy, ijtimoiy-psixologik, ruhiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash borasida bir qator vazifalar mavjudligini e'tirof etadilar. Shuningdek, yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini, ularning ongiga singdirish, oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo nizolarning yomon oqibatlarini yaqqol misollar yordamida tushuntirish bu sohadagi soxta, tor ma'nodagi fikrlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar . G'.B.Shoumarovning "Oila psixologiyasi" darsligida oila psixologiyasining umumiy asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikoh

mustahkamligiga ta'siri, oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi, oilaviy nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlarini xususida batafsil so'z boradi.

Psixologik moslashuv xulq-atvor strategiyalari, ularning kengayishi va sifatining o'zgarishida namoyon bo'ladigan muhim o'rin almashinishidan iborat. Individual faoliyatining ustun bo'lgan konteksti yoki atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilishdan qisman yoki to'liq voz kechishda namoyon bo'ladigan xulq-atvor strategiyalarining torayishi doirasida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy moslashuv mavjud ijtimoiy strategiyalarni samarali qo'llash va sifatli yangiliklarni ishlab chiqishda, individual yashash faoliyatining umumiy oshishi bilan ifodalanadigan kasbiy va individual faoliyat sohalarini kengaytirishda o'z aksini topadi.

Moslashuvning psixologik jabhasi sotsiumdagi normalar va qadriyatlarni o'zlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ularga asosan o'zaro ta'sir, shuningdek, insonning atrofdagi odamlar bilan muomilasi va aktiv faoliyati kiritiladi. Oilaga moslashuv yuqoridagi komponentlarni o'z ichiga olgan holda oilaviy hayot bilan tanishuv, asta-sekin unga kirish jarayoni sifatida boshlanadi. L.B.Shneyder fikricha, bu davr nihoyatda qiyin kechadi, shunki u nafaqat muomala va faoliyatning qayta qurilishini, balki yosh er-xotinlar shaxsining o'zgarishini, ulardagi ehtiyoj motivatsion sohaning qayta qurilishini, o'zini o'zi anglashning yangi darajasini shakllantirishni, ijtimoiy muhit bilan yangi aloqalar o'rnatishni taqozo etadi.

T.B.Kartseva nikohni inson hayotidagi tub burilish hodisasi deb baholab, bu davrda shaxs rivojlanish vaziyatining o'zgarishi, buning natijasida rollar almashinuvi, o'zaro ta'sirga kirishuvchi shaxslar doirasining hamda hal qilinadigan hayotiy muammolar va turmush tarzining o'zgarishi yuz berishini ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, o'z ichiga ham ijobiy, ham salbiy o'zgarishlarni qamrab olgan bunday hayot hodisalarining yuz berishi shaxsda o'zgarishlarga olib keladi, undagi "men" tizimi qayta quriladi va shaxs tomonidan og'riqli kechiniladi. Nikohgacha yoshlarda "Men-obrazi" shakllangan bo'ladi. Oila qurgandan keyin ular avvalgidek yashay olmaslik vaziyatiga tushib qoladilar, bu esa beqarorlik va qoniqmaslikni kuchaytiradi.

R.Kappenberg degan olimning ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulodda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida shokziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda ro'y beradigan holatlarning oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib giyohvand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib qolishlari, oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'liga kirib qolishi, falokatlar va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi, munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunda ham oiladagi kattalarning oqilligi, mahallaning hamjihatligi ijobiy rol o'ynashi mumkin.

² The psychosocial problems of families caring for relatives with mental illnesses and their coping strategies: a qualitative urban based study in Dar es Salaam, Tanzania

Ko'plab oilalarda psixologik muommolarning paydo bo'lishi insonda turli xil ruhiy kasalliklar va psixo-ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, bemorning oila a'zolarining hayot sifatini pasaytirish, shuningdek, bemor va bemorga g'amxo'rlik qilayotgan oila uchun ijtimoiy masofani oshirish. Psixo-ijtimoiy qiyinchiliklar ruhiy kasalliklarga bog'liq bo'lgan stigma bilan kuchayadi, bu nafaqat bemorga, balki butun oilaga ham ta'sir qiladigan muammodir. Turli sabablarga ko'ra yosh oilalardagi psixologik muommolarning kelib chiqish sabablari va unga qarshi kurashish mexanizmlari bir-biridan farq qiladi.

Bugungi kunda butun dunyodagi psixolog olimlarning maqsadi oiladagi ruhiy kasallikning psixo-ijtimoiy muammolarini, shu jumladan ruhiy kasalligi bo'lgan odamga g'amxo'rlik qilayotgan oila a'zolari tomonidan qo'llaniladigan kurashish strategiyalarini aniqlash edi. Nega aynan bugun rivojlanib borayotgan hayotimizda yaqinlarimizga emas psixologlarga bo'lgan ihtiyojimiz oshib bormoqda. Biz uchun mukammal bo'lib tuyulgan narsa boshqalar uchun mukammal bo'lmasligi mumkin. Har bir oilaning o'ziga xos muammolari bor. Har bir inson mustaqillik va so'z erkinligini xohlaydigan bugungi kunda oilaviy muammolar juda keng tarqalgan. Oilaviy muammolar hatto eng baxtli oilalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu qiyin va asabiy uy muhitiga olib kelishi mumkin. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar keskinlashishining asosiy sababi o'z menini ustunroq qo'yishida va uning biologik holatidagi sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan muommolar bo'lishi ham mumkun. Ba'zan ko'rinishidan sog'lom ko'ringan inson doimo ham sog'lom bo'la vermaydi. Odam bolasi juda murakkab qilib yaratilgan deyishimiz mumkun. Uning tanasi bilan bog'liq bo'lgan hastaliklar asta-sekinlik bilan ruhiyatiga singib boradi va uni ham ichki va ham tashqi tarafdin yemirib tashlashga erishadi.

Rivojlanib borayotgan dunyoning har bir yerida ko'plab buzilib ketayotgan oilalar juda ko'p. Ularda tug'ulgan farzandlar taqderi esa afsuski yechimlarsiz qolmoqda. Farzandlarning ota-ona mehridan mahrum bo'lishi va nosog'lom muhitda tarbiya topishi bu uning ham kelajakda ana shunday psixologik muommolar bilan qarshilanishiga tug'ri keladi. Undagi mavjud kichik jarohat brogan sari oila tushunchasiga bo'lgan qarashlarinjing o'zgarib ketishiga olib keladi.

Oilaviy muommolarning ko'payishining e'tibordan chetda qolgan sabablaridan biri bu bolalarning oilasidan uzoqlashishidir. Ota-onaning byetarlicha e'tibor bermasligi uning farzandi bilan bo'lgan majburiyatlardan qochishi undagi to'laqonli oila shakillantirishga ega emasligini ko'rsatadi. Haddan tashqari inson o'zini sevishi oqibatida ham ba'zan o'ziga ko'plab muommolar tug'dirishi mumkun. Amerekalik bir qator psixologlar tomonidan olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki oiladagi muommolarning sababchisi insonning o'zidir. Undagi tarbiya va majburiyat insoniy fazilatlarining shakillanmaganligi oqibatida psixologik muommolar paydo qilmoqda.

Albatta, ikki yoshning qovushishidan iborat holat bu hali to'laqonli oila emas. Muhabbatli hayotning, birgalikdagi turmushning dastlabki ko'rinishi, xolos. Farzand tug'ilgach tom ma'nodagi oila vujudga keladi. Farzand – oilaning mustahkam tayanchi. Uning butun og'irligi-yu zavqli tomonlarini uyg'unlashtirib turadigan, ota-onani kelajakka qat'iy ishonch bilan qarashga da'vat etadigan qudratli kuchdir.³

Xulosa

Insonning dunyoga kelib, odam bo'lib shakllanishida ota-onaning roli oila muhiti bilan bog'lanib ketgan murakkab psixologik va tarbiyaviy jarayondir. Bugun yoshlarimiz har tamonlama yetuklikka erishishlari uchun nafaqat ota-ona balki barcha birdek qayg'urmoqda. Oliy ta'limdagi olib borilayotgan tub o'zgarishlar har bir bolaning taqdiri mahalla oqsoqollari uchun ham birdek javobgarlik yukini yuklashi ham bejizga emas. Shuncha olib borilayotgabi sayin harakatlarga qaramasdan ba'zi bir oilalarda bolalar ota-onalarining bajargan xatolariga javobgar bo'lib qolishmoqda.

Bugun yurtboshimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar qatlamini yaxshilash maqsadida, moliyaviy ta'minotga muhtoj, nogironligi bo'lgan oilalar, boquvchisini yo'qotgan va shu kabi bir qator sabablari mavjud bo'lgan oilalarga keng ko'lamda har tomonlama qullab-quvvatlanmoqdalar. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda kelajakda mustahkam jamiyat barpo etish uchun asosiy poydevori deb aytisak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bugun ko'plab oilalarning erta turmushning tugatilishi oqibatida ko'plab yosh bolalarning psixologik muommol;ar ta'siriga tushub qolishiga sabab bo'lmoqda. Nosog'lom oilada tarbiyalanayotgan bolalarning ertangi hayotiu barchamiz uchun birdek ahamiyatlidir.Ushbu maqolada aynan shunday oilalardagi ijtimoiy-psixologik muommolarning asil mohiyati va buni bartaraf etishdagi psixolog olimlarning tadqiqotlari va uzoq yillar olib borilgan izlanishlariga tayandek. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda barcha muhim omillar va psixologik muommolarning yechimini bartaraf etishda ularning kelib chiqish sabablari va masalalari yoritilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 y
- 2.Sh.M.Mirziyoyev erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz "O'zbekiston"NMIU 2016.
- 3.G'oziev E. G'. Psixologiya. –T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 2008 y. 352 b.
- 4.G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2-kitob. T.: 2002 y.
- 5.G'oziev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 104
- 6.G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi): PedFoziev Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси): Пед. Ин-тлари ва ун-тларнинг талабалари учун ўқув кўл. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 244 б.
- 7.Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. T.: «Ibn Sino». 2000.-132 b

³ "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. [Matn] – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – 200 b.